



**DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA  
INSTITUTI**

**“AXBOROT TEXNOLOGIYALARI  
SOHASIDAGI INNOVATSIYALAR VA IT  
PARKNING OLIY TA'LIMDAGI O'RNI”**

**RESPUBLIKA ILMIY - AMALIY  
ANJUMAN MATERIALLARI**

**DENOV-2023**



Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to'plamida Xorijiy davlatlar shuningdek, Respublikamiz professor-o'qituvchilari, olimlar, soha mutaxassislari, ilmiy tadqiqotchilar, magistrlar, talabalarning ilmiy maqolalari hamda tezislari o'rin olgan.

### **Tashkiliy qo'mita a'zolari:**

**G'.X. Raximov** – Denov tadbirkorlik va pedagogika institute rektori, f.f.d., professor, qo'mita raisi.

**R.Ya.Mamajonov** – DTPI ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori, t.f.n., dotsent, qo'mita raisi o'rinbosari

**M.J.Toshboboyev** – "Tadbirkorlik va boshqaruv" fakulteti dekani, falsafa fanlari bo'yicha PhD, qo'mita a'zosi.

**T.J.Rajabov** – "Axborot texnologiyalari" kafedrasini mudiri, katta o'qituvchi, qo'mita a'zosi.

**K.Turaboyeva** – "Raqamli iqtisodiyot" kafedrasini mudiri i.f.n, dotsent. qo'mita a'zosi.

### **Ilmiy materiallarni qabul qiluvchi va nashrga tayyorlovchi:**

**A.M.Xolbekov** – "Axborot texnologiyalari" kafedrasini o'qituvchisi

To'plamdan joy olgan maqola va tezislardagi ma'lumotlarning haqqoniyligiga mualliflar mas'uldirlar.

Tahrir hay'ati qabul qilingan ilmiy materiallarda berilgan tafsilotlar hamda maqolaning ilmiy saviyasi uchun javobgar emas.

## **KOMPYUTERLI IMITACION TRENAJYORLAR - KASBIY KOMPETENSIYALARNIRIVOJLANTIRISHNING ASOSIY OMILI SIFATIDA.**

Imomova Shafolat Mahmudovna  
Buxoro davlat universiteti Amaliy matematika va dasturlash texnologiyalari  
kafedrasi dotsenti  
E-mail: [sh.m.imomova@buxdu.uz](mailto:sh.m.imomova@buxdu.uz)

Oliy ta'lim muassasalarida talabalarning shaxsiy rivojlanishi ularning mustaqil fikrlash, ijodkorlik, faollik, munosabatlarning chuqurlashib hamda boyib borishi, xarakter hamda dunyoqarashlarining turg'unligi, o'z-o'zini nazorat qilish va tarbiyalashga bo'lgan ehtiyojlarning shakllanishi kabi holatlar bilan tavsiflanadi. Bo'lajak kasb egalari uchun ta'lim muassasalarida ta'lim olish jarayoni – bu insonda mehnat faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirishda ahamiyatli sanalgan kasbiy bilim, sifat, kompetentlik va mezonlar asosida rivojlantirish hamda o'z-o'zini takomillashtirishning eng maqbul davridir. Ta'lim oluvchilar ushbu jarayonda bilimlarni jamlash, saqlash, uzatish, ularning mantiqiy tuzilmasini yaratish va istiqbolda kasbiy faoliyatini tashkil etishda ulardan samarali foydalanish kabi holatlarni o'zida mujassam ettiradi.

“Kompetentlik” pedagogik kategoriya sifatida ta'lim sohasiga psixologik ilmiy izlanishlar natijasida kirib kelgan. Psixologik nuqtai nazardan kompetentlik “noan'anaviy vaziyatlar, kutilmagan (nostandart) holatlarda mutaxassisning o'zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o'zaro munosabatlarda yangi yo'l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to'la ma'lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik”ni anglatadi.

Shundan kelib chiqqan holda kasbiy kompetentlik kategoriyasiga quyidagicha izoh keltirilgan. Kasbiy kompetentlik – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olinishini ko'zda tutadi.

Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo'nalish bo'yicha integrativ bilimlar va hatti-harakatlarning o'zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, "kompetensiya" mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o'rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma'lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o'z faoliyatida qo'llay bilishni taqozo etadi.

Fanlarni o'qitishda kompyuterli imitasion-trenajyorlardan foydalanish talabalarni kasbiy kompetensiyalarini rivojlanishiga asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Trenajyor insonning texnik tayyorgarligidek aniqlanadi, o'quvchilarning bilim va ko'nikma malakalarining tegishli bo'lib, unga kerakli material obyektini boshqarish uchun ko'p o'rgatish yo'li bilan haqiqiy obyektini amaliy xususiyatlarini boshqarish uchun mo'ljallangan.

Trenajyor modellari tomonidan simulator so'zi, imitator ma'nosini anglatadi, shunisi ma'lumki barcha imitatorlar trenning uchun mo'ljallangan. Tasodifan shu yo'nalishda ingliz tili adabiyotida bir vaqtning o'zida ikkita termin qabul qilingan *computer-based training va simulation* kompyuter treningi uchun asosan real vaqt va imutatsion modellashtirish uchun mo'ljallangan. Trenajyor platformalarini qayta ishlovchilar kompyuter trenajyor sistemalari operatsiyalarini olib boradi dastur apparatlari vositalari tushunchasi modellashtirishni ta'minlash real vaqtda uzluksiz jarayonda o'rganish maqsadlarida qo'llaniladi.

Kompyuterli imitasion trenajyorlar - bu dasturiy vositalar yordamida voqelikning matematik modeliga muvofiq uning haqiqiy modelini yaratishni ta'minlaydigan tizim. Dasturiy ta'minot tomonidan boshqariladigan ta'sirlar foydalanuvchini idrok etishning asosiy organlariga (ko'rish, eshitish, teginish, hidlash) qo'llanilganda, shuningdek simulyatsiya qilingan muhitning amalga oshirilayotgan harakatlarga haqiqiy reaksiyasini ta'minlashda foydalanuvchining kuzatilgan virtual muhitda shaxsiy ishtiroki ta'siri paydo bo'ladi.

Kompyuterli imitasion trenajyorning vazifalari - o'zlashtiriladigan materiallar yoki ko'nikmalarning kelgusi ish talablariga muvofiqligini ta'minlash, ta'lim jarayonining samaradorligi, shuningdek, mashg'ulotlar davomida o'rganilgan

stereotiplarning haqiqiy mehnat sharoitlariga muvaffaqiyatli o'tkazilishini ta'minlash. Pedagogikada qo'llaniladigan o'quv vositalarini tasniflashda kompyuterli imitasion trenajyorlarni texnik o'quv vositalari (TO'V) toifasiga kiritamiz. Bular samaradorlikni oshirish maqsadida o'quv jarayonida ma'lumotlarni taqdim etish va qayta ishlash uchun ishlatiladigan tizimlar, komplekslar, qurilmalar va uskunalar. Funktsional maqsadiga ko'ra texnik o'quv vositalari uchta asosiy sinfga bo'linadi: axborot, nazorat va o'qitish.

Shunday qilib kompyuterli imitasion trenajyorlarni kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishning asosiy omili sifatida e'tirof etishimiz mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

Гаммер М. Д., Сызранцев В. Н., Голофаст С. Л. Имитаторы на базе программно-аппаратной платформы в техническом образовании - Новосибирск: Наука, 2011. - 275 с

Imomova Shafolat Mahmudovna. talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga yangicha yondashuvlar// volume 2 | special issue 14 | 2023, C.1075-1081

Imomova Shafolat Mahmudovna. Kompyuterli imitasion trenajyorlar// ученый XXI века № 4 (95), 2023 г. с.31-32.

Imamova Shafolat Mahmudovna. Simulation trainer's educational competence in the process of forming students' professional competence// international journal on integrated education Volume 6, Issue 9, Sep- 2023 P.75-77.

Imomova Shafolat Mahmudovna. Matematik tizimlarda talabalarning kasbiy kompetentligini imitasion-trenajyor asosida rivojlantirishning pedagogik shartlari // Ilm-fan va texnologiyalar №2(1), 2023, C. 19-23.

Sunnatullo DO'STOV .....	
KOMPYUTERLI IMITACION TRENAJYORLAR - KASBIY KOMPETENSIYALARNIRIVOJLANTIRISHNING ASOSIY OMILI SIFATIDA .....	159
Imomova Shafolat Mahmudovna .....	
AXBOROT TEXNOLOGIYALARINI DARS JARAYONLARIDA TA'LIM SIFAT VA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA FOYDALANISHDAGI MUAMMOLARI VA ULARNING YECHIMLARI .....	162
Ochilov Toxir Mardonovich.....	
UZLUKSIZ TA'LIM SIFATINI OSHIRISHNING G'OYAVIY VA HUQUQIY ASOSLARI .....	167
Haqberdiyev Bahrom Bobonazarovich .....	
TEXNOLOGIYA FANI DARSLARI SIFATI VA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING O'RNI .....	172
Toxirov O'ktamjon Otaqo'ziyevich .....	
MULTIMEDIALI ALOQA TARMOQLARIDAGI MAVJUD ZAIFLIKLAR.....	178
Shaydullayev Jahongir Quadrat o'g'li.....	
КОЭРЦИТИВНЫЕ ОЦЕНКИ И РАЗДЕЛИМОСТЬ ОПЕРАТОРА ГРУПИНА В ГИЛЬБЕРТОВОМ ПРОСТРАНСТВЕ .....	185
Каримов О. Х., Азамкулов А.....	
OLIY TA'LIM MUASSASALARI UCHUN AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARIGA ASOSLANGAN MASOFAVIY TA'LIM TIZIMI VA UNING TASHKILY TUZILMASI .....	187
Karimova Zilola Botirovna.....	
ELEKTRON TA'LIM RESURSLARI VA MULTIMEDIALI ELEKTRON O'QITISH VOSITALARI ORQALI TA'LIM MUHITINING RIVOJLANISHI .....	191
Z.O.Nurmatov.....	
E.B.Choriyev .....	
J.U.Boyqobilov.....	
AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING RIVOJLANISH TARIXI .....	197
<sup>1</sup> Obidov Nuriddin G'ofurovich.....	
<sup>2</sup> Karimov Axliddin Abdumalik og'li.....	
AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI.....	
<sup>1</sup> Obidov Nuriddin G'ofurovich.....	
<sup>2</sup> Bolliyev Xumoyun Yo'lchi o'g'li .....	200
TASVIR SIFATINI YAXSHILASH ALGORITMLARI .....	205
Normurodov Sadridin Salim o'g'li.....	